


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o’sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, 30 559 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 20 450 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2024- yil 1- oktabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyl sonining 15 518 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, ularning ulushi 75,9 % ni tashkil etdi.

2024- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasiga jalgan, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi, %



2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (47,1 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


**2024- yil 1- oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo‘yicha tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 29 334,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,3 % ni tashkil etdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlaganda Yashash va ovqatlanish xizmatlariga (37,9 %), savdo xizmatlariga (19,7 %), transport xizmatlariga (12,3 %), moliyaviy xizmatlariga (10,7 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2024- yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 5 664,6 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2024- yil yanvar-sentabr) oyiga nisbatan xizmatlar hajmi 18 600,2 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga Yashash va ovqatlanish xizmatlari (10 799,0 mlrd. so‘mga), savdo xizmatlari (2 553,8 mlrd. so‘mga), transport xizmatlar (1619,2 mlrd. so‘mga), hamda moliyaviy xizmatlari (1 075,6 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma’lumot uchun: 2023- yilning mos davrida Yashash va ovqatlanish xizmatlar – 2 410,5 mlrd. so‘m, savdo xizmatlar – 916,1 mlrd. so‘m, transport xizmatlari 695,5 mlrd. so‘m va moliyaviy xizmatlar – 540,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatharning asosiy ko‘rsatkichlari**

| | <i>Hajmi, mlrd.so‘m</i> | <i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i> |
|--|-----------------------------|--|
| Xizmatlar – jami | 29 334,0 | 110,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 944,5 | 115,9 |
| moliyaviy xizmatlar | 3 129,4 | 114,7 |
| transport xizmatlari | 3 619,2 | 110,4 |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i> | | |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 11 129,1 | 108,3 |
| savdo xizmatlari | 5 784,9 | 111,7 |
| ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 478,6 | 112,1 |
| ta’lim sohasidagi xizmatlar | 771,7 | 109,7 |
| sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 383,6 | 109,2 |
| ijara xizmatlari | 389,5 | 101,8 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 806,9 | 110,8 |
| shaxsiy xizmatlar | 715,0 | 107,4 |
| me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 235,9 | 118,0 |
| boshqa xizmatlar | 945,7 | 107,9 |

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 114,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlar 115,9 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 118,0 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari 101,8 %, boshqa xizmatlar 107,4 % hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari 108,3 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining beshdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 19,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlari 10,7 %, transport xizmatlari 12,3 % egallaydi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 5 784,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 916,2 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,3 %



Atomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan bo'yicha xizmatlar 14,1 %



Chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 74,6 %

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 74,6 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,3 % ga

yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 14,1 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2024- yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 944,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sishi 171,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 81,0 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 99,2 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 0,8 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 3 129,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 114,7 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo‘yicha xizmatlar (92,4 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o‘quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 383,6 mld. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish 109,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 11 129,1 mld. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning ulushi 38,0 % ga yetdi.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

| | <i>Hajmi, mldr. so‘m</i> | <i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i> |
|-----------------------------|--------------------------|---|
| Qashqadaryo viloyati | 10 733,8 | 112,3 |
| Qarshi sh. | 4 718,7 | 115,0 |
| Shahrisabz sh. | 805,6 | 109,2 |
| G‘uzor | 681,4 | 109,7 |
| Dehqonobod | 494,9 | 108,9 |
| Qamashi | 894,2 | 108,5 |
| Qarshi | 1 003,9 | 108,9 |
| Koson | 1 089,5 | 108,3 |
| Kitob | 1 064,4 | 109,3 |
| Mirishkor | 735,4 | 108,0 |
| Muborak | 1 065,0 | 109,4 |
| Nishon | 613,3 | 109,5 |
| Kasbi | 728,6 | 108,0 |
| Ko‘kdala | 267,5 | 108,9 |
| Chiroqchi | 617,0 | 109,1 |
| Shahrisabz | 965,8 | 109,3 |
| Yakkabog‘ | 869,1 | 108,2 |
| Taqsimlanmagan hajm | 12 719,7 | 114,3 |

Hududlar o‘rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (4 718,7 mlrd. so‘m), Koson tumani (1 089,5 mlrd so‘m), Muborak (1 065,0 mlrd. so‘m), Kitob tuman (1 064,4 mlrd. so‘m) va Qarshi tuman (1 003,9 mlrd.so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam hajm Chiroqchi (617,0 mlrd. so‘m), Nishon (613,3 mlrd. so‘m), Dehqonobod tumani (494,9 mlrd. so‘m) va Ko‘kdala (267,5 mlrd. so‘m) da kuzatilmoqda.


2024- yil yanvar-sentabr oyalarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %



Yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahar – 115,0 %, G‘uzor tumani – 109,7 %, Nishon tumani – 109,5 % va Muborak tumani 109,4 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (16,1 %), Koson tumani (3,7 %), Kitob tumani (3,6 %) va Muborak (3,6 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Ko‘kdala (0,9 %), Dehqonobod tumani (1,7 %) va Chiroqchi (2,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor
xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati
(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)**




Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi kuzatilmoqda. 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan hajm 1 429,9 ming so‘mga oshib 8 172,2 ming so‘mga teng bo‘ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko‘rsatkichga ega Qarshi shahrida 15 861,3 ming so‘m, Muborak tumanida 11 318,1 ming so‘mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahrida (112,6 %) Shahrisabz shahrida (107,3 %), va Shahrisabz tumanida (107,4 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Kasbi (105,5 %), Mirishkor (105,7 %) Yakkabog‘ (106,0 %) va Qamashi (106,1 %) tumanlarida qayd etildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida (826,8 mlrd. so‘m), Koson (463,7 mlrd. so‘m) va Kitob (452,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Ko‘kdala (79,6 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 5 034,3 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,0 % ni tashkil etdi.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarining o‘sish sur’ati, % da



2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘sish sur’ati Qarshi (115,9 %), Chiroqchi (113,8 %) va Kitob tumanlarida (112,9 %) kuzatildi.

Eng kam o‘sish sur’ati Yakkabog‘ tumanida (104,1%) va G‘uzor tumanida (101,9 %) qayd etildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Qarshi shahri (16,2 %) va Koson (9,3 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Dehqonobod tumanida (2,5 %) Ko‘kdala (1,6 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi 2 000,1 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,8 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur’ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahrida (579,5 mlrd. so‘m) va Koson tumanida (274,0 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Ko‘kdala tumanida (55,3 mlrd. so‘m) qayd etildi.